

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI

IQTISODIY BILIM ASOSLARI KAFEDRASI

“HIMOYA QILISHGA RUXSAT BERAMAN”

**TABIATSHUNOSLIK VA
GEOGRAFIYA FAKULTETI DEKANI**

_____ b.f.n. G'.QODIROV

“ _____ ” _____ 2012 y

**5140500 - “GEOGRAFIYA VA IQTISODIY BILIM ASOSLARI” YO`NALISHI
BO`YICHA BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN**

**RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING JAHON
MOLIYAVIY- IQTISODIY INQIROZDAN CHIQISH
BORASIDAGI CHORA TADBIRLARI**

MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARUVCHI: ISHIMOVA M.

ILMIY RAHBAR: i.f.n.. SH .M. XIDIROV

**BMI IQTISODIY BILIM ASOSLARI
KAFEDRASI UMUMIY YIG`ILISHINING _____ 2012 y.
№ ____ SONLI QARORI BILAN HIMOYAGA TAVSIYA ETILGAN.**

KAFEDRA MUDIRI: _____ i.f.n.. Sh .M. Xidirov

JIZZAX - 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
1-BOB.IQTISODIYOTNING SIKLIK RIVOJLANISHI VA INQIROZLAR	
1.1. Iqtisodiy inqirozning kelib chiqish mohiyati.....	7-8
1.2.Tarkibiy inqirozlar va ularning iqtisodiyotning alohida sohalariga ta’sir etish yo’nalishlari.....	9-13
1.3. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi kelib chiqish bosqichlari va uning o’ziga xos xususiyatlari.....	14-20
 II- BOB. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZINING RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA’SIR KO’LAMI.	
2.1. Rivojlangan mamlakatlarning inqirozga qarshi dasturlarining qiyosiy tahlili.....	21-33
2.2. O’zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturining amaliy natijalari.....	34-41
2.3. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Iqtisodiy bilim asoslari” darsida Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi haqida tushuncha berish uslubi.....	42-44
 XULOSA.....	45-54
 ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	55-56

Жаҳон иқтисодиётига, биринчи навбатда, ривожланган йирик мамлакатлар иқтисодиётига 2008 йилда бошланган глобал молиявий-иқтисодий инқироз ҳали-бери салбий таъсир кўрсатмоқда.

Ислом Каримов

KIRISH

Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotning shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohatlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarning o'sishini ta'minlash samarali tashqi savdo hamda investisiya jarayonlarni kuchaytirish, qishloq ho'jaligini isloh qilish, kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbekistonning halqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari I. Karimov. Tamonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohatlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va tug'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy iqtisodiyotlarning tobora integrasiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar halqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga har bir mamlakatning halqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeyini mustahqamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvi va globallashtiruvining ijobiy tamonlari bilan bir qatorda ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi

iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining kuchayib borishi keskin farqlanishi kabi holatlar jahon ho'jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek mazkur jarayonlarning yana bir xususiyatli jihati-jahonning bir mamlakatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning (inqirozlarning) muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ldi.

Shunga kura, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqiroz oqibatlarining ta'sirini har tamonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushba jarayonlar ta'siri nuqtai nazaridan shakillantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi. Bu boradagi chora tadbirlar Prezidentimiz I. Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida keng va batafsil bayon qilib berilgan. Asarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmuni mohiyati, namoyon bo'lish shakillari, kelib chiqish sabablari, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, mazkur inqiroz oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar bayon qilib berilgan. Shuningdek mamlakatimiz mehnatkashlari uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lishiga qaramay 2008 yilda erishilgan ijobiy natija va yutuqlar baholanib respublikamizdagi iqtisodiy salohiyatdan yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Asarda O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozoridagi yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning qo'yidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan:

- 1) Mamlakatimizda qabul qilingan 2009-2012 yillarda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosida iqtisodiy o'sishning o'zoq muddatli

barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozonatli rivojlanishini ta'minlash.

- 2) Tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni difersifikasiyalash, buni birinchi navbatda, halqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;
- 3) Qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga fermer ho'jaligini rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga fermer ho'jaligini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli o'zora chuqur bog'langan chora tadbirlar keng kompleksini amalga oshirish;
- 4) Aholi bandligini ta'minlash uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish;
- 5) Mamlakatni modernizasiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish;
- 6) Banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi dipozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish.

Prezidentimizning ushba asarida belgilab berilgan O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, halqimizning hayot darajasi va farovonligi yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va

samarali amalga oshirish eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab yetishni taqozo etadi.

2009-2012 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim yo'nalishlarini bilish maqsadida mazkur maxsus kursning joriy etilganligi muxim ahamiyat kasb etadi.

Hozirga kunda jahon iqtisodiyoti so'ngi o'n yillar davomida rivojlanishlari jarayonidagi eng qaltis davrni boshidan kechirmoqda. Jahon ilk bor deyarli barcha mamlakatlarga ta'sir ko'rsatgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozga duch keldi. 2008 yilning noyabrida Vashingtonda va 2009 yilning aprelida Londonda dunyoning yetakchi 20 davlati ishtirokida bo'lib o'tgan sammitida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning global ko'lamini tasdiqlash bilan birga, undan chiqish uchun dunyoning barcha davlatlari birgalikda izlanish va ularning sa'y harakatlarini movofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ushba jarayon davomida ko'plab mamlakatlarda nafaqat joriy iqtisodiy siyosat, balki umuman isloh qilish va iqtisodiyotni boshqarishning strategiyasi, konsepsiyasi va tamoyillari qayta ko'rib chiqilmoqda. Shuni tan olishimiz kerakki, shunga amal qilgan holda muqarrar haqiqat deb hisoblangan ko'plab tamoyillar bugun tanqidiy tahlil qilinmoqda, yangicha yondashuv, yangicha yechimlar izlanmoqda.

Ana shu izlanishlar asosida konferensiya ishtirokchilari e'tiboriga O'zbekiston sharoitida ishlab chiqilgan va o'zini oqlagan taraqqiyot modeli xovala etilmoqda. Bu model avvalo, mamlakatda yangi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakillantirishning asosiy tamoyillarini qamrab oladi. Bu tamoyillarning mohiyati iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, davlat zimmasiga bosh islohatchi vazifasi yuklatilishi, kuchli ijtimoiy siyosat yuritilishi, islohatlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

BMI bajarilishda ham ushba xulosa va asoslardan kelib chiqqan holda uning sifati va to'loqonli bajarishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek maktab iqtisodiy ta'limida mazkur mavzuni o'rganish uslubiga ham e'tibor berilgan.

1-BOB.IQTISODIYOTNING SIKLIK RIVOJLANISHI VA INQIROZLAR

1.1. Iqtisodiy inqirozning kelib chiqish mohiyati

Iqtisodiy inqirozning kelib chiqish mohiyati har qanday mamlakat, shu jumladan industrial rivojlanmagan mamlakatlar ham iqtisodiy o'sishga, hamda to'liq bandlilik va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladi, ammo uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy barqarorlik davrlari bilan uzulib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo inqiroz kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan iqtisodiy qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ostida takror ishlab chiqarish harakatida uzilishlar paydo bo'ladi va bu uzilish iqtisodiy nomutanosibliklarning keskin shaklida nomayon bo'lishidir. Iqtisodiy sikil deganda, odatda ishlab chiqarishning bir iqtisodiy holatidan, yoki bir inqirozdan ikkinchisi boshlanguncha qadar takrorlanib turadigan to'lqinsimon harakati tushiniladi. Inqiroz ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi va siklning qayd etuvchi ifodasidir. U bir sikilni nihoyasiga yetkazib, yana muqarrar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi; inqiroz vaziyatda asosiy kapitalning ortiqcha jamg'arilishi uning hamma funksional shakllarida nomoyon bo'ladi. Inqirozdan keyin turg'unlik keladi, uning davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitda vujudga kelishi nihoyasiga yetadi.

Jonlanish fazosining boshlanishi ozmi-ko'pmi darajada barqaror ishlab chiqarishning kengayishiga o'tishni bildiradi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo'lib qoladi. Inqiroz fozasida ishlab chiqarish va bandlik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoiliga berilmaydi. Inqirozning qo'yi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlilik o'zining eng past darajasiga erishishi bilan karakterlanadi. Iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi. Inqirozning asosiy sababi takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo ishlab chiqarish uning natijalarini o'zlashtirish o'rtasidagi nomutanosiblik bulib u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarda nomayon bo'ladi. Ishlab chiqarish bilan istemol talab va taklif o'rtasidagi vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqishi imkoniyatini saqlaydi. Yirik mashinali

ishlab chiqarishga o'tilgan davrdan keyingi vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotni ma'ruza salbiy turuvchi iqtisodiy inqirozlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishga siklik harakterni kasb etadi. Bu tashqi omillar ichidan qo'yidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

-Urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar.

-Oltin, uran, neft, va boshqa qimmatli resurslar, yirik konlarning ochilishi.

-Yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog'liq ravishda aholi migrasiyasi, yer shari aholi migrasiyasi, yer shari aholisi sonining o'zgarib turishi;

1.2. TARKIBIY INQIROZLAR VA ULARNING IQTISODIYOTNING ALOHIDA SOHALARIGA TA'SIR ETISH YO'NALISHLARI

Iqtisodiyotdagi inqirozlardan bir kurinishi yoki uning bir turi tarkibiy inqirozlardir. Bu inqirozlarni ishlab chiqarishlarning ayrim sohalari bilan tarmoqlar rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklar keltirib chiqaradi. Tarkibiy inqirozlar bilan iqtisodiy tebranishlar va shu jumladan iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlar ham mavjud bo'ladi. Masalan bayramlar arafasidagi harid qilish, istemolchilik tovarlarning faollik suratida, asosan chakana savdoda sezilarli har yillik tebranishlarga olib keladi. Qishloq ho'jaligi, avtomobil sanoati, qurilish ham qandaydir darajada mavsumiy tebranishlarga duchor bo'ladi. Iqtisodiy faollik iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tamoillarga, yani uzoq muddatli davr, masalan 25, 50 yoki 100 yil davomida iqtisodiy faollikni ortishi yoki pasayishiga bog'liq. Bu yerdashuni takidlash lozimki, ayrim mamlakatlarda (masalan AQSh) o'zoq muddatli tamoil sezilarli iqtisodiy o'sish bilan xarakterlansa, boshqalari uchun iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi xos iqtisodiy faollikning tebranishni tushuntiruvchi ko'plab qarashlar mavjud bo'lishiga qaramasdan ko'pchilik iqtisodchilar, ishlab chiqarishlar va bandlik darajasini bevosita aniqlovchi omil umumiy yoki yalpi sarflar darajasi hisoblanadi, deb tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlar agrar inqirozlar deb ataladi. Agar inqirozlar qo'yidagi shakillarda nomoyon bo'ladi.

- 1) Qishloq ho'jalik mahsulotlarining nisbiy ortiqcha ishlab chiqarishni, uning sotilmay qolgan juda katta zahiralarining to'planishi.
- 2) Narxlarning pasayishi, daromodlar va foydalarning kamayishi.
- 3) Fermerlarning ommoviy ravishda xonavoyron bo'lishi ularning qarzlarining ortishi.
- 4) Qishloq aholisi o'rtasida ishsizlarning ko'payishi.

Qishloq ho'jaligida takror ishlab chiqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, agrar inqirozlar o'ziga xos xususiyatlarga o'ziga xos xarakter kasb etadi. Agar inqirozlar sanoat sikllariga qaraganda odatda ancha uzoqroqqa cho'zilib boradi. Birinchi agrar inqiroz o'tgan asrning 70- yillarida

90-yillar o'rtasigacha davom qilgan edi. Birinchi jahon urushidan keyin, aholining harid qobilyati juda pasayib ketgan sharoitda, 1920 yil bahorida keskin agrar inqiroz boshlanib ketdi va ikkinchi jahon urushining boshlanishiga qadar davom etdi. Uchunchi agrar inqiroz 1948 yildan boshlanib, 80 yillargacha davom etdi. Agrar inqirozning cho'zilib ketishining asosiy sabablari qo'yidagilar.

A) Yerga xususiy mulk monopoliyasi sharoitida u qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning rivojlanishida sanoatga nisbatan orqada qolishni taqozo etadi.

B) Yer rentasining mavjud bo'lishi va uning uzluksiz suratda o'sib borishi. Yer rentasining avvalo absalyut rentaning ko'payishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qimmatlashtirib yuboradi, buning natijasida uni sotish qiyinlashadi.

V) Ko'plab mayda dehqon xo'jaliklarining mavjud bo'lishi. Mayda ishlab chiqaruvchilar xo'jalikni asosan o'zi va oilasi uchun zarur tirikchilik vositalarini topish maqsadida yuritadi. Inqiroz sharoitida ham ular ishlab chiqarishni qisqartira olmaydilar. Tirikchiliklarni o'tkazish va ijara haqini to'lash uchun ishlab chiqarishni ilgargi miqdorda olib boraveradi. Bu hol qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarishni yana ham ko'paytirib beradi. Agrar inqirozlar siklli harakterga ega bo'lmaydi. Qishloq ho'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish absalyut harakterga ega bo'lmaydi. Qishloq ho'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish absalyut harakterga emas, balki nisbiy xarakterga ega. Chunki, inqiroz ro'y bergan mamlakatda million – million kishilar doimiy suratda ochlikda yashaydi. Hozirgi zamon iqtisodiy fanida iqtisodiy sikl va siklli rivojlanishga mingdan ortiq qarashlar mavjudligi ta'kidlanadi. Biz ularning ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan asosiylariga tavsif beramiz.

Kitchin sikli – zahiralar sikli deb ham nomlanadi. Bunda Kitchin (1926 y) moliyaviy hisoblar va tovar zahiralar harakatida sotish narhlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiq qilishga o'zining e'tiborini qaratadi.

Juglar sikli – biznes – sikl, sanoat sikli, o'rtacha sikl va katta sikl kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7 – 12 yillik sikllarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Fransuz, Angliya va AQShda foiz stavkalari va narhdan tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan. K. Juglar (1819 – 1905 y) nomi bilan ataladi. Odatda iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalaniladigan iste'molchilik tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ko'proq yo'qotishga uchraydi. Uy – joy va sanoat binolari qurilishi, og'ir mashinasozlik hamda investision tovarlar, avtomobillar, maishiy xo'jalik buyumlari va shunga o'xshash tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo'lgan ishchilar siklning inqiroz fazasida og'ir oqibatiga uchraydi. Biroq, bu tarmoqlar siklning yuksalish fazasida o'zining rivojlanish uchun yuqori darajada raqobat oladi.

Iqtisodiyot qiyinchilikni boshdan kechira boshlaganda, ishlab chiqaruvchilar ko'pincha zamonaviy uskunalarni sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to'xtatadi yoki qandaydir muddatga kechiktirishi mumkin. Bunday kon'yunktura sharoitda investision tovarlar zahiralarini ko'paytirish hych qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan ancha to'laroq foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan qo'lay davrlarda yani sikilning jonlanishi va yuksalish fozalarida ishlab chiqarish vositalari odatda ular to'liq eskirganiga almashtiriladi. Ammo inqiroz davri kelganda korxonalar o'zining eskirgan uskunalarni ta'mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lgan ayrim korxonalar, xatto istemol qilingan asosiy kapitalning o'rnini asosiy kapitalining o'rnini qoplashga ham harakat qilmaydi.

Qisqa muddatli foydalanadigan istemolchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari siklining oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi. Aholi yoki keng istemolchilar qatlamiga iqtisodiy sikil turlicha ta'sir ko'rsatadi. Inqiroz davri boshlanganda, doimiy doromad oluvchi istemolchilar oila

byudjetini qisqartirishga to'g'ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni harid qilishni to'xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a'zolarini yeb-ichishi va keyinishi zarurligi tufayli oziq-ovqat mahsulotlari va keyim kechaklar, yani qisqa muddatda foydalanadigan istemolchilik tovarlarini harid qilishni to'xtatish mumkin emas. Faqat bunday tovarlarini harid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investision tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan istemolchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi ko'pchilik sanoat tarmoqlari yuqori darajada monopol mavqiyega egaligi bilan farqlanadi va natijada bozorda nisbatan ko'p bo'lmagan yirik firmalar ma'lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi turishi, talabning kamayishi sababli mahsulot chiqarish hajmini cheklash uchun yetarlicha monopol xukumdorlikka ega bo'lishi mumkin. Shu sababli talabaning kamayishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va bandlilik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunga teskor bo'lgan holatni qisqa muddatli foydaniladigan istemolchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko'pchiligi o'zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarish markazlashuvi darajasining pastligi bilan harakterlanadi. Shu sababli ular siklining salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlarga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko'proq aks etadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va inovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar. Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani eksternal nazariya deb atash qabul qilingan. Internal nazariya iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillar tug'diradi deb hisoblaydi.

Asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati, ko'pchilik iqtisodchilar tamonidan (iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillar to'g'risida deb hisoblaydi). Iqtisodiy siklni tug'diruvchi muxim omillardan biri sifatida qaraladi. Agar bir yoki bir necha tarmoqda mashina uskunalarga talabning keskin ortishi keltirib chiqaradigan iqtisodiy o'sish boshlansa to'liq tabiyki bu

xol mashina va uskunalar to'liq eskiradigan har 10-15 yildan keyin takrorlanadi.

Boshqa ichki omillardan qo'yidagilar ajratib ko'rsatiladi.

-Shaxsiy istemolning o'zgarishi (qisqarish yoki kengayish);

-Investisiyalar, yani ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarni vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi.

-Ishlab chiqarish talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosatining o'zgarishi iqtisodiy sikilning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish ko'lami tug'ri emas. Iqtisodiy sikl va umuman iqtisodiy tizimdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlar tashqi va ichki omillar oqibatida kelib chiqish mumkin emas. Demak kapitalning to'planishi yuqori darajada bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishi va narxlarning nisbatan sekin tushishi, to'planish darajasi past bo'lgan tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

1.3. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI KELIB CHIQISH BOSQICHLARI VA UNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi globalashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi orqali tavsiflanadi. Globallashuvni iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo'lsak. U jahon xo'jalagining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi. Globallashuv jarayonlarining (yanada takomillashuviga) kengayishi jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarining yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan globallashuvi natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko'rinishidagi halqaro birlashmalar faoliyatining yanada kuchayishi ro'y beradi. Globallashuv jarayonlari jahon ho'jalagining yaxlit iqtisodiy tizimi sifatida rivojlanishda sifat bosqichi hisoblanib, yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Biroq globallashuvi jarayonini mutloqlashtirish va unga bir tomanlama qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, mazkur jarayon o'zining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda zidiyatli tamonlariga ham ega. Jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazish shulardan biri hisoblanib, bugungi kunda ro'y berayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining oqibati hisoblanadi. Shunga ko'ra Prezidentimiz o'z asarlarini bugungi kunning eng dolzarb muomosi-bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat ekanligidan boshlab, jahon moliyaviy inqirozning mazmun-mohiyati kelib chiqish sabablariga batafsil to'xtalib o'tdilar." Bu inqiroz Amerika Ko'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatdan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Bundan ko'rinadiki, dastlabki AQSh ipoteka bozorlarida nomoyon bo'lgan mazkur inqiroz yetarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati

shubhali bo'lgan qarzдорlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro'y beradi. AQSh iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlari tufayli arzon kredit resurslarga to'yindi va bu federal zahira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini o'zgartirishiga olib keldi, natijada 2004-2006 yillarda federal zahira tazimi foiz stavkalarni 6.25% gacha ko'taradi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholini ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzдорlar to'lovining qisqarishiga olib keladi. Boshqa tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslari narxlarining o'sishi aholining kreditni qaytarish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarning cheklanishiga olib keladi. 2000-2007 yillar mobaynida jahon bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi o'rtacha ikki barobarga oshdi. Benzin narxi esa 3,5 barobarga oshdi. Neft narxi rekord darajada, ya'ni bir-bareli 147 dollardan ortdi. Britaniyaning nufuzli gazetalardan biri bo'lgan "Gardion" jahon moliyaviy inqirozining asosiy aybdorlari ro'yxatini e'lon qildi. Mazkur ro'yxatning oldingi o'rinlarida AQSh ning taniqli siyosatchi o'rin olgan bo'lib, unda inqiroz faqatgina iqtisodiyot rivojlanishining navbatdagi harakatlantiruvchi kuchi ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Aksariyat moliya-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan siyosatining mevasi ekanligini, ya'ni o'z-o'zini boshqaruvchi bozor g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan ham izohlanmoqdalar. Shu o'rinda jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab-moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutunosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini takidlash lozim. Pul muomilasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lam va barqaror amal qilish uchun muomilaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan AQShda keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur

qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi. Ma'lumotlarga ko'ra, muomiladagi pul massasi (naqd kredit pullar va turli tulov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligi ham hisobga olinsa muomala uchun zarur bo'lgan talabdan bir necha o'n baravar ko'payib ketganligini anglatadi. Shu bilan bir qatorda, asosan yetkachi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan qo'yidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga asosiy sabablaridan hisoblanadi:

- Norasional pul kredit siyosatini, hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turulishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi:

- Moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag'lari o'rtasidagi mutunosiblikning keskin buzilishi:

- Qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi:

- Moliyaviy audit va professional etika tamoyillarini buzilishi va sohta audit xulosalar taqdim etilishi;

- Moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat ko'rsatkichlariga emas balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;

- Yuqori riskli xatarli va murakkab xosilaviy qimmatbaxo qog'ozlarni vujudga kelishi va hokazo Prezidentimiz o'z asarlarida dunyoning hozirgi vaqtda bir qator yetakchi mahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz xolatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materillarini o'rganish va umumlashtirish natijasida qo'yidagi xulosalarga kelayotganligini ta'kidlab o'tdilar. Ya'ni "Birinchidan moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgan resesiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investisiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi talab va halqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda. Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda surunkali

byudjet taqchilligi va salbiy tashqi savdo saldosining kuzatilayotganligi jahon moliyaviy inqirozining vujudga kelishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Dunyoning ayrim mamlakatlari tashqi savdo saldosidagi o'zgarishlar (mlrd AQSh doll). Rivojlangan mamlakatlar jami 1996 yil 46.2 mlrd, 2007 yil 798.8 mlrd dollar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar jami 1996 yil-87.5 mlrd dollar. 2007 yil 509.7 mlrd dollar. Tashkil qildi. Ma'lumotlarga ko'ra so'ngi paytlarda halqaro valyuta zahiralarining 3.4 trln dollari ya'ni jami zahiralarining qariyb 59% Osiyoning 10 ta yirik mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksariyat halqaro ekspertlarning e'tirof etishlaricha 2007 yilda AQSh ipoteka bozorlarida boshlangan inqirozning avj olishi va uni jahon yalpi ichki mahsulotining asosiy iste'mol qiluvchisi hisoblanganligini keltirib o'tishadi, Ma'lumotlarga qaraganda, AQShning jahon yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishdagi hissasi 20%ni tashkil qilsada, uning istemoldagi hissasi qariyb 40 %ni tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlar ayniqsa AQSh davlat tashqi qarzi miqdorining o'sib borganligi va uning YaIM ga nisbatan salmog'i o'sganligi inqirozning asosiy omillaridan biri bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, keyingi 4 yil maboynida xususan, AQSh va ayrim mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari (Qirg'izistondan tashqari) tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotlariga nisbatan salmog'i ortib borgan. Xususan 2008 yilda AQSh tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i qariyb 90%ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Rossiyada 37% ni Qozog'istonda 102 % ni Ukrainada 64 %ni tashkil etgan. Qirg'izistonda esa keyingi 3 yil maboynida pasayish tendensiyasi kuzatilib 2008 yilda 81% ni tashkil qilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. Ya'ni amalga oshirilgan oqilana iqtisodiy siyosat natijasida tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 2005 yildagi 29 % dan 2008 yildan 13.3 %ga qadar qisqargan. Hozirda ko'plab mutahasis va ekspertlar tamonidan jahon moliyaviy inqirozining glabal tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi resessiya ketma-ketyillar maboynida pasayish holati va iqtisodiy pasayishni investision faollik ko'lami cheklanib borishini, talab va

halqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda. Shunga ko'ra xukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko'rish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Prezidentimiz o'z asarlarida moliyaviy inqiroz holati va uning ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarga doir fikrlarni davom ettirib, navbatdagi xulosani ta'kidlab o'tdilar.

Ikkinchidan avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. AQSh federal zaxira xizmatining sobiq raisi Alan Prinsken boshchiligida AQSh federal zahira tizimi tomonidan olib borilgan norsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalashtirish stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turushi natijasida banklar tomonidan kredit berish ko'lamini keskin o'sdi. Federal zaxira tizimining ekspansion pul-kredit siyosati tijorat banklariga taqdim etadigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini 1.25% gacha pasaytirishida namoyon bo'lgan edi. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining nomuvofiqligi natijasida banklar tomonidan kreditlash tizimi talablari yangilashib, bu holat kreditlardan foydalanishda to'lovga layoqatlik darajasining hisobga olinmasligi imkon yaratdi. Prezidentimiz o'z asarlarida global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bulgan oqibatlariga doir materillarini o'rganish va umumlashtirish natijasida kelib chiqan qo'yidagi uchunchi xulosani ta'kidlab o'tdilar: "Uchunchidan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lamini va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. XX asirning oxirlarida boshlangan va hozircha davom etib kelayotgan bozorlarning globallashuvi kapitallar halqaro hakaratining erkinlashtirilishi natijasida AQSh bozorlarida vujudga kelgan inqiroz dunyoning boshqa mamlakatlariga ham keng yoyildi. AQSh banklari va ipoteka agentliklarining qimmatli qog'ozlariga qo'yilma qilingan xorijiy investorlar moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu o'z navbatida dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Jahon moliyaviy inqirozi MDX mamlakatlarini ham chetda qoldirmadi. Inqiroz Rossiya, Ukraina va Qozog'istonda o'zining jiddiy salbiy oqibatlarini nomoyon qildi.

Rossiyada asosan iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalar aksiyalarining narxlari keskin tushub ketdi. Bu holat birinchi navbatda jahon energetika resurslari bozoridagi nabarqaror konyukturaning vujudga kelishi natijasida sodir bo'ldi.

“Qozog'iston iqtisodiy mu'jizasi” degan nom bilan tanilayotgan Qozog'istondagi “ochiq iqtisodiyot” siyosati va stixiyali tavsifga ega bo'lgan jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvi jarayoni global moliyaviy inqiroz sharoitida o'zining jiddiy kamchiliklariga egaligini ko'rsatdi. Kapitallarning chetga chiqib ketishi suzib yuruvchi kurslar bo'yicha olingan tashqi qarzlarning qimmatlashuvi bank tizimidagi muommalarida o'z ifodasini topdi va ular aktivlari sifatining pasayishi Qozog'iston banklarining Halqaro kredit reytingining pasayib ketishiga olib keldi. Shu o'rinda aytish lozimki, xozirgi rivojlanib borayotgan moliyaviy inqiroz infilsiya, qator banklar va moliyaviy muassasalarning tanazulga yuz tutishi ta'sirida ishsizlik, ishlab chiqarish suratlarning pasayishi va boshqalar negizida iqtisodiy inqiroz shaklida kuchayib bormoqda. Bundan ko'rinib turibdiki.

Prezidentimiz Islom Karimov 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida eng avvalo keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'zgarishlar va turli salbiy tendensiyalarni atroflicha tahlil etib berdi. Yurtboshimiz bu borada dunyodagi taniqli iqtisodchilar, nufuzli ekspert va mutaxassislarning baholari va chiqarayotgan xulosalari prinsipial jihatdan yagona bir fikrga kelayotgani, jumladan, jahon iqtisodiyotiga, birinchi navbatda, rivojlangan yirik mamlakatlar iqtisodiyotiga 2008yilda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hali-beri salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlab o'tdi.

Ma'lumki, o'zining salbiy ta'siri bilan insoniyatga jiddiy tashvishlar tug'dirayotgan, jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini izdan chiqarayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz o'tgan asrning so'nggi choragidan e'tiboran rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi mutanosibliklar, xususan real va moliyaviy sektor o'rtasidagi nisbatning buzilishi oqibatida vujudga kela boshladi.

Bu mamlakatlardagi yirik moliyaviy muassasalar tomonidan o'zining korporativ manfaatlarini amalga oshirish maqsadida bank-moliya sohasidagi me'yor va tartiblarning qo'pol tarzda buzilishi, jahondagi ko'plab davlatlarning real aktivlaridan spekulyativ tarzda foydalanish orqali katta daromad olishga intilish va shu tariqa global moliyaviy arxitekturada jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilishi, milliy iqtisodiyotdagi yalpi talabni qo'llab-quvvatlash, tobora o'sib borayotgan tashqi qarzlarni cheklash uchun "arzon pullar" siyosatining qo'llanishi kabi xatti-harakatlar yuzaga kelayotgan nomutanosibliklarning yanada kuchayishi va borgan sari keskin, muqarrar ravishda inqiroz holatini keltirib chiqaradigan darajada tus olishiga sabab bo'ldi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarlarida birinchilardan bo'lib bu jarayonning yuzaga kelishi sabablarini quyidagi tarzda keng asoslab berdi: "Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»¹.

¹ Ислом Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 4-б.

II- BOB. JAHON MOLIYAVIY IQTISODIY INQIROZ MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

2.1. MAMLAKATLARNING INQIROZGA QARSHI DASTURLARI QIYOSIY TAHLILI.

O'zbekiston respublikasi prezidenti I.A. Karimov o'z asarlarida global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berish mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materillarni o'rganish va umumlashtirish natijasida keltirib chiqarilgan to'rtinchi xulosani qo'yidagicha bayon etdilar: “ To'rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozdanimkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq”. Shuningdek, 2008 yil noyabr oyida Vashingtonda jahon yalpi mahsulotning 85% ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokida bo'lib o'tgan sammit global moliyaviy inqirozning ko'lami tobora kengayib borayotganini tasdiqlagani, ushbu sammitda bo'lib o'tgan mohakamalar bugun jahon moliyaviy inqirozning oldini olish haqida emas, balki undan qanday qilib chiqish yo'llari izlanayotganligidan darak berishini ta'kidlab o'tdilar.

Jahon moliyaviy inqirozi aksariyat rivojlangan mamlakatlar moliya tizimini tubdan isloh qilish zarurligini keltirib chiqadi. Shunga ko'ra, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'zlarining bank tizimlarini inqirozdan qo'tqarish uchun yirik tijorat banklarining aksiyalarini sotib olib, ularni byudjet mablag'lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta'minlay boshladi. AQSh hukumati iqtisodiyotga yirik masshtabdagi davlat aralashuvi siyosatini yurita boshladi. AQSh ning sobiq moliya vazirining tashabbusi bilan kongres “Polsan rejasi” deb nomlanuvchi rejani qabul qildi. Mazkur rejaning umumiy hajmi 700 milliard dollarni tashkil qiladi.

Yevropa ittifoqi mamlakatlari inqirozdan chiqish bo'yicha tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanishga kelishib olishdi. Bu holatda kafolatlar banklararo kreditlar bo'yicha 5 yil muddatga taqdim etiladi va banklarning imtiyozli aksiyalarini sotib olish orqali ularni qo'llab-quvvatlash

imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, hozirgi sharoitda inqirozdan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya nisbatan ko'proq aziyat chekmoqda.

Inqirozni bartaraf etishga ajratilgan mablag'larning yo'nalishlari.

- Kredit mablag'lariga davlat kafolati.
- Moliyaviy institutlar ustav kapitallariga qo'yilmalar.
- Yuqori riskli, shubhali aktivlarning xaridi.

Germaniyaning Inqirozga qarshi choralar dasturi.

-Birinchi reja (2008 yil oktyabr):

- 2009-2010 yillarda uy xo'jaliklariga-20 mlrd. Yevro (YaIMning 0,8%) miqorida yordam berish choralari:
- bolalar nafaqasini oshirish;
- ishsizlik bo'yicha nafaqa badallarini qisqartirish.

-Birinchi rejaga qo'shimcha (2008 yil noyabr):

- korxonalarni qo'llab-quvvatlashga-17,3 mlrd. Yevro (YaIMning 0,7%);
- davlat investisiyalari-7,2 mlrd. Yevro (YaIM ning 0,3%)

1.Inqirozga qarshi choralari dasturining asosiy sohalari.

- 1.1 Bank tizimini tezlik bilan qutqarish bo'yicha choralar.
- 1.2 Pul-aredit siyosati choralari inqirozga qarshi siyosatdan rag'batlantiruvchi siyosatga o'tish.
- 1.3 Real sektorga ta'sir ko'rsatish hamda talabni rag'batlantirishchoralari.
- 1.4 Aholining salbiy kutishlariga qarshi turish.

2.Bank tizimini tezlik bilan qutqarish bo'yicha choralar.

Maqsadi-bank sohasidagi sorasima hamda milliy kredit bank tizimini barqarorlashtirishdan holos bo'lish.

1. Banklarni qayta kapitallashtirish.
2. Barqarorlashtiruvchi kreditlarni taqdim etish.

3. Bank tizimini restukturizatsiyalash bo'yicha choralar, banklarni birlashtirishga ko'maklashish yoki ularni milliyalashtirish.
4. Foiz stavkasini imkon qadar pasaytirish.
5. Jismoniy shahslarning banklardagi omonatlari bo'yicha 100 % gacha kafolatlashni keskin oshirish:
6. Banklarning balanslarini tozalash bo'yicha choralar, shu jumladan, muamoli aktivlar bo'yicha davlat kafolatini berishni qo'shgan holda.

1.2 Pul-kredit siyosati choralari inqirozga qarshi siyosatdan rag'batlantiruvchi siyosatiga o'tish.

Maqsadi- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish; defiyasiyaga yo'l qo'ymaslikka harakat qilish: foiz stavkasi orqali ichki bozorni barqarorlashtirish; iqtisodiy siyosat choralarining samaradorligini oshirish.

-Ko'plab mamlakatlar tomonidan defiyaisiyadan xavfsirash tufayli foiz stavkalarini pasaytirish.

-Zahira meyorlarini pasaytirish.

-Milliy valyuta kursini pasaytirish.

-Iqtisodiyotni kreditlash yangi vositalardan foydalanish.

1.3 Real sektorga ta'sir ko'rsatish hamda talabni rag'batlantirish choralari.

Maqsadi- ichki talabga yo'naltirilgan hamda ichki bandligini ta'minlovchi tarmoqlarini qo'llab quvvatlash:

-Bevosita yoki bilvosita soliqlarni pasaytirish;

-Mahsus byudjet fondlarini yaratish.

-Kichik va o'rta biznesni qo'llab quvvatlash;

-Davlat tomonidan qarz berilishini ko'paytirish.

1.4 Aholining salbiy kutishlariga qarshi turish.

Maqsadi- aholining banklardan "qochishiga" yo'l qo'ymaslik, jamg'armalarni rag'batlantirish.

- Omonatlar bo'yicha kafolatlar summasini oshirish yoki omonatlar bo'yicha 100 % lik kafolatlarni kiritish.
- Pensiya fondlarini milliyashtirish.
- Ish joyidan mahrum bo'lgan kishilarni moslashtirish va qayta o'qitish dasturlarini qabul qilish.
- Korxonalar bilan ishchi o'rinlarini qisqartirmaslik to'g'risida kelishib olish.
- 2008 yilda jahon mamlakatlarining inqirozga qarshi kurashga sarflangan moliyaviy harajatlari.

Buyuk Britaniyada 1020 mlrd dollar, mamlakat YaIM da 37% tashkil qilgan. AQSh 3539 mlrd dollar mamlakat YaIMda 25 % tashkil qiladi.

Germaniyada bu ko'rsatkich 893 mlrd dollarni YaIM da 23 % tashkil qilgan. Rossiyada 222 mlrd dollarni mamlakatda YaIMda 13,9% tashkil qilgan. Xitoyda bu ko'rsatkich 570 mlrd dollar mamlakatning YaIMda 13%ni tashkil qilgan. Yaponiyada bu ko'rsatkich 576 mlrd dollarni mamlakatni YaIM da 13 %ni tashkil qilgan.

Dunyo buyicha bu moliya harajatlari 9400 mlrdni dunyo YaIMning esa 15% ni tashkil qilgan.

YAPONIYANING INQIROZGA QARSHI KURASH CHORALAR

DASTURI

CHORALAR TARKIBI.

- 1.Moliyaviy muassasalarga yordam;
- 2.Mahalliy byudjetlarni qo'shimcha ravishda barqarorlashtiruvchi moliyalashtirish va soliq yukini pasaytirish.
- 3.Ish bilan bandlikni ko'llab-quvvatlash hamda ishdan bo'shatilganlarga yordam ko'rsatish;
- 4.Uy-joy qurilishiga investisiyalarni rag'batlantirish;
- 5.Ijtimoiy ahamiyatdagi muassasalarga tegishli eski va zilzilaga xavfli bo'lgan binolarni ta'mirlash;
- 6.Bolalarning maktabgacha muassasalarini hamda pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

7. Ijtimoiy infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, shu jumladan tabiiy falokatlardan zarar ko'rganlarga yordam ko'rsatish fondini ajratish.

8. Xizmat narxlarini pasaytirish va boshqalar.

XIToyning Inqirozga qarshi choralar dasturi

Asosiy tarkibiy qismlar:

1. Eng avvalo ahamiyatli hajmdagi davlat sarflari orqali qo'llab-quvvatlanuvchi ichki iste'molning o'sishini rag'batlantirish.

2. Iqtisodiyot 10 ta asosiy tarmog'ining rivojlanishini jonlantirish va maqsadga muvofiq yo'naltirish.

3. Jadal texnik qayta qo'rollantirish choralarini qo'llash.

4. Ijtimoiy himoyaning yetarli darajadagi keng kamrovli tizimini yaratish.

5. Iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy barqarorlikni saqlash.

AQShning Inqirozga qarshi choralar dasturi.

Nomi: "Amerika Tiklanish va Qayta investisiyalash rejasi".

1. Muhtojlarga yordamlashish.

2. Infratuzilmani rivojlantirishga oid loyihalar.

3. Soliqlar.

4. Qonunchilik va tartibga solish.

BUYUK BRITANIYANING INQIROZGA QARSHI CHORALAR DASTURI

1. 2008 yilning 1 dekabridan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 17.5 %dan 15 % ga qadar pasaytirish (YaIM 0.8%)

2. Bank qarzlarini bo'yicha davlat kafolatlarini berish.

3. 100 mlrd f.st. (110 mlrd, yevro) hajmdagi shubhali aktivlarni sotib olish (jami shubhali aktivlarning 50%).

4. 2010 yilga qadar davlat investisiyalarini 3 mlrd. Funt sterlinggi ko'paytirish;

5. Kichik va o'rta biznes korxonalariga 20 mlrd. f.st.miqdorida kreditlar ajratish.

6. Uy-joy dasturini amalga oshirish (YaIM ning 0.05%)

7. Bolali oilalarga beriladigan oila nafaqalarini va soliq kreditlarini ko'paytirish (YaIMning 0.02%) va boshqalar.

Prezidentimiz jahon moliyaviy inqirozi ro'y bergan dastlabki palladayoq uning ta'sir darajasi, ko'лами va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlariga yetarli baho berib, "jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora- tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq"², deb xulosa chiqargan edi. Bunday haqqoniy xulosalar asosida O'zbekistonda 2008 yilning o'zida Inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilib, unda belgilangan tadbirlarni izchil ravishda amalga oshirishga kirishildi.

Jahonning yetakchi rivojlangan mamlakatlari ham inqirozning oldini olish, uning ta'sir darajasini pasaytirish borasida turli ko'rinish va ko'lamlardagi harakatlarni boshlab yubordi. Ushbu chora-tadbirlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash maqsadida jahondagi rivojlangan mamlakatlarning "Katta sakkizlik" va "Katta yigirmalik" guruhleri doirasida bir necha bor sammitlar o'tkazildi. Dastlab bu chora-tadbirlar 2009-2010 yillarda ma'lum natija bergandek bo'ldi. Xususan, jahon iqtisodiyotida o'sish sur'atlarining pasayishi to'xtatildi, ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish o'sdi, investision faollik jonlandi. Biroq, ushbu chora-tadbirlardagi o'zaro mutunosiblik darajasining pastligi, inqirozga qarshi kurashish yo'llari va vositalarini qo'llashdagi izchillikning yo'qligi ularning samarasini keskin pasaytirib yubordi, aksariyat hollarda ko'zlangan natijalarga erishish imkonini bermadi. Bu borada Prezidentimiz jonkuyarlik bilan "Katta yigirmalik" guruhining o'zaro birgalikda qabul qilgan chora-tadbirlarining amaldagi samarasi sezilmayotgani, ko'p hollarda belgilangan qoidalarga amal qilmaslik, majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida kutilgan natijalarga erishilmayotgani haqida qayta-qayta to'xtalib, jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlariga erishish yo'lida hozircha biron-bir jiddiy siljish ko'zga tashlanmayotganini ilgari ham ta'kidlagan edi.

²Ўша маҳба, 6-б.

“2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” mavzusidagi ma’ruzasida ham davlatimiz rahbari “sakkizlik” va “yigirmalik” deb atalgan mamlakatlar guruhlar doirasida qabul qilinayotgan qarorlarga qaramasdan, eng avvalo, jahon moliya-valyuta tizimida inqiroz keltirib chiqarayotgan muammolarni hal etish va kerakli nazorat o’rnatish bo’yicha yagona iqtisodiy model hanuzgacha ishlab chiqilmaganini, bu esa jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi o’rin tutadigan yirik davlatlarni o’z manfaatlarini o’ylab, o’z bilganicha harakat qilishga majbur etayotganini qattiq tanqid qilib o’tdi.

O’tgan davr mobaynida ahvolni yaxshilash maqsadida ko’rilayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, aksariyat davlatlarda o’sish sur’atlari va ishlab chiqarishning amalda pasayishi kuzatilayotgani va bunday jarayon davom etadigan bo’lsa, u global miqyosda resessiya holatiga, yani iqtisodiyotning o’sish o’rniga davomli ravishda pasayib borishiga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinayotgan ushbu ma’ruzada alohida qayd etildi.


Haqiqatan ham, 2011 yil inqirozning ikkinchi to’lqini boshlanishi ehtimoli bilan bog’liq bozor vaximalarining qaytadan kuchayish davri bo’ldi. Ayniqsa, yevrohududdagi qarzdorlik inqirozi chuqurlashib, uning bank tizimi va iqtisodiyotning real sektoriga tarqalishi kuzatildi. Yevropa siyosatchilari yakdil bir qarorga kelishda sustkashlik va layoqatsizlikni namoyon etishda davom etdilar. Investorlar qarzdorlik muammolarini tartibga solish mumkinligiga, banklarning barqarorligiga va Yevropa iqtisodiyotining istiqbollari nisbatan ishonchni yo’qota boshladi. Likvid mablag’lar bozoridagi tanglik o’sib, borgan sari yangi mamlakatlar “muammoli”lar qatoriga qo’shila boshladi. Va nihoyat, Yevropadagi umumiy iqtisodiy o’sishdagi pasayish real tahdidga aylana boshladi.

O’tgan yil, shuningdek, yuqori darajadagi qarzdorlik yukining mavjudligi va byudjet taqchilligi aksariyat rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining umumiy belgisi ekanini ko’rsatdi. Masalan, AQShning qarzdorlik hajmi YaIMga nisbatan 100 foiz darajasiga yaqinlashib, bu uzoq muddatli istiqbolda jahon iqtisodiyoti uchun keskin xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. AQSh o’zining yuqori

kredit reytingidan mahrum bo'lgani 2011 yilda jahon bozorlarining yangi bosqichga o'tganidan darak beradi.

AQSh iqtisodiyotining bir tekis bo'lmagan o'sish dinamikasi, ishchi kuchi bozorida jiddiy muammolarning saqlanib qolishi, mamlakat korxonalari sarflayotgan kapital hajmining pasayib borayotgani ham jahon iqtisodiyoti va moliyaviy bozorlarining istiqboliga nisbatan o'ta shubha bilan qarashni kuchaytirdi³.

Rivojlangan mamlakatlardagi YaIM o'sish sur'atlaridagi beqarorlik hali jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirlari davom etayotganligini ko'rsatadi (2.1.1-rasm).




*Izoh: 2012 yil uchun prognoz ma'lumotlari.

2.1.1-rasm. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda).

Rasmdan ko'rinadiki, inqiroz tufayli barcha rivojlangan mamlakatlarda 2009 yildagi keskin pasayishdan keyin 2010 yilda iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlangan edi. Hattoki, ushbu o'sish sur'atlari AQSh, Yaponiya va Germaniyada inqirozdan oldingi 2007 yil natijalaridan ham yuqoriroq bo'lganini

³ UFSInvestmentCompany: Стратегия на 2012 год. –<http://bonds.finam.ru>

kuzatishimiz mumkin. Biroq, 2011 yilda tahlil qilinayotgan barcha mamlakatlarda oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atlari yanasekinlashib, hatto Yaponiyada 0,4 foiz darajasida iqtisodiy pasayish ro'y berdi. Turli xalqaro moliyaviy tashkilotlarning berayotgan prognozlariga ko'ra, 2012 yilda ham manzara u qadar ijobiy tus olmaydi. AQSh va Yaponiyada iqtisodiy o'sish sur'atlari tegishli ravishda 1,8 va 2 foiz bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, Buyuk Britaniya va Germaniyada bu ko'rsatkich atigi 0,7 foiz darajasida bo'lishi taxmin qilinmoqda.



2.1.2-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi.

Avval moliyaviy sohada boshlanib, keyinchalik iqtisodiy sohaga o'tgan inqiroz, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, pirovardida ijtimoiy sohaga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, xususan, ishsizlik darajasining keskin oshib ketishiga olib keldi (1.1.2-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, inqirozdan oldin aksariyat rivojlangan mamlakatlarda 4-5 foiz atrofida bo'lgan ishsizlik darajasi 2009-2010 yillarda keskin ravishda oshib, 10 foizga yetdi. Bu boradagi muhim chora-tadbirlar natijasida 2011 yilda ishsizlikni ma'lum darajada pasaytirishga erishilganiga qaramay, AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyada bu ko'rsatkich hamon yuqori darajada qolmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi mehnatga layoqatli aholining har uchinchi yo ishsiz, yoki qashshoqlikda hayot

kechirmoqda. Bu holatdan chiqish uchun 600 millionta. ish o'rnini yaratishga qaratilgan global xatti-harakatlar yordam berishi mumkin.

“Hukumatlarning qattiq sa'y-harakatlariga qaramasdan ish o'rinlari bilan bog'liq inqiroz pasaymayapti. Dunyodagi har uchta ishlovchidan bittasi, bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra bu 1,1 milliard. kishi – yo ishsiz, yoki qashshoqlikda yashamoqda, – deb ta'kidladi Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori Xuan Somaviya. – Real iqtisodiyotda ish o'rinlarini yaratish asosiy ustuvor yo'nalishga aylanishi lozim”.

“Agar o'tgan yil bilan taqqoslanadigan bo'lsa, prognoz yanada umidsiz tus oladi. Biz ishsizlikning ma'lum darajada pasayishini kutgan edik. Biroq, 2012 yilda bunday holat ro'y bermaydi. Iqtisodiy o'sishning pasayishi sharoitida ishsizlikning yanada o'sishi kuzatiladi”, – deb izohlaydi XMT bayonoti mualliflaridan biri Ekkexard Ernst.

XMT prognozlariga ko'ra, 2012 yilda jahondagi ishsizlar soni 3 million kishiga ko'payadi. Agar jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari 2 foizdan past bo'lsa, u holda mazkur raqam 4 million kishiga qadar yetishi mumkin. Aksincha, agar yevrohudud mamlakatlari qarz inqirozidan tezlik bilan chiqsa, bu raqam 1 million kishiga pasayishi mumkin.

O'ziga munosib ish topa olmagan yoshlar soni jahon bo'yicha 2011 yilda 74,8 million kishini tashkil etgan. Bu bir yil oldingi 77,6 million kishiga nisbatan oz, biroq, inqirozdan oldingi holatga nisbatan 4 million ko'pdir. Aholining mazkur yosh guruhi (15-24 yosh) orasidagi ishsizlik darajasi umumiy ishsizlik ko'rsatkichidan 3 barobar ortiq bo'lib, 12,7 foizni tashkil etmoqda.

XMTning ma'lumotlariga ko'ra, hozir dunyoda 200 million kishi ishsiz bo'lib, yaqin o'n yil davomida har yili 40 millionta qo'shimcha ishchi o'rnini yaratish zarur bo'ladi⁴.

Prezidentimizning ma'ruzasida ko'pgina taraqqiy topgan mamlakatlarda vaziyat qanday tus olishini oldindan aytib bo'lmaydigan va turli xavf-xatarlar

⁴ Спелова П. Очередь безработных не сокращается. - <http://www.vz.ru/economy>.

saqlanib qolayotgan bir sharoitda davlat qarzlar va davlat byudjeti taqchilligi tobora ortib borayotganiga alohida e'tibor qaratildi.


Ma'lumki, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi davlat byudjeti xarajatlarning daromadlarga nisbatan ortib ketishi, ya'ni byudjet taqchilligiga olib keladi. Byudjet taqchilligining vujudga kelishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- ishlab chiqarishning pasayib ketishi;
- xarajatlarning haddan tashqari o'sib ketishi;
- tovarlar bilan ta'minlanmagan pul emissiyasi;
- harbiy sanoat majmuasini moliyalashtirish bo'yicha sarf-xarajatlarning o'sishi;
- pinhona iqtisodiyot, unumsiz xarajatlar, yo'qotishlar hajmining o'sib borishi va boshqalar.

Byudjet taqchilligining o'zgarishi xo'jalik kon'yunkturasidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat byudjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini moliyaviy ta'minlab turishga, umummilliy ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investisiyalar hajmini saqlab qolishga majbur bo'ladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida byudjet taqchilligining kuchayish holati ayniqsa 2010 yilda Irlandiya (32 foiz), Gresiya (15,4 foiz), Buyuk Britaniya (11,1 foiz) singari mamlakatlarda keskin namoyon bo'lgan bo'lsa, bu kabi holatlar 2011 yil davomida ham kuzatildi (2.1.3-rasm).

Byudjet taqchilligining kuchayishi muqarrar ravishda davlat qarzini keltirib chiqaradi. Ya'ni, byudjet taqchilligi asosan davlat qarzi hisobiga qoplanib, u ichki va tashqi qarzlardan iborat bo'ladi. Ichki qarz davlatning mamlakat ichida zayomlar va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarish, byudjetdan tashqari turli fondlar (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi) olingan qarzlardan iborat bo'lsa, tashqi qarz xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz hisoblanadi.

Tashqi qarzning me'yoridan oshib ketishi milliy iqtisodiyot rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar tashqi qarz bo'yicha to'lovlar mamlakatning tovar va xizmatlar eksportidan keladigan tushumning sezilarli qismi, masalan, 20-25 foizidan oshib ketsa, bu holat davlatning kredit bo'yicha reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada chetdan yangi qarz mablag'larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko'ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirib boradi.



2.1.3-rasm. Ayrim mamlakatlarda 2011 yil yakunida davlat byudjeti taqchilligi darajasi.

Bunday chora-tadbirlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: mamlakatning oltin-valyuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to'lab borish; kreditorlarning qarz to'lov muddatlarini o'zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma'lum qismidan voz kechishlariga erishish; qarzlarni mamlakatdagi ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobidan to'lash; xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.

Hozirgi vaqtda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida, aksariyat mamlakatlarning tashqi qarzi haddan tashqari oshib ketayotganligini kuzatish mumkin (2.1.1-jadval).

Jadvaldan ko'rinadiki, tashqi qarz darajasining Irlandiyada 1307,6 foiz, Buyuk Britaniyada 416 foiz, Fransiyada 188 foiz va boshqa ko'plab mamlakatlarda yillik YaIM hajmidan sezilarli darajada yuqori bo'lishi mazkur mamlakatlarning moliya sohasida jiddiy muammolar mavjudligini anglatadi.

21.1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda tashqi qarz darajasi (2011 yil 30 iyundagi holati)

Mamlakat	Tashqi qarz, million AQSh doll.	Aholi jon boshiga tashqi qarz miqdori, AQSh doll.	YaIMga nisbatan tashqi qarz, foiz
Yevropa Ittifoqi	16080000	32092	108
AQSh*	15033607	50000	100
Buyuk Britaniya	9836000	147060	416
Germaniya	5624000	63493	159
Fransiya	5633000	74410	188
Yaponiya	2719000	19300	57
Ispaniya	2570000	52588	165
Italiya	2684000	39234	101
Irlandiya	2357000	482340	1307,6

*Izoh: AQSh bo'yicha ma'lumot 2011 yil 18 noyabrdagi holati bo'yicha berilgan.

Yurtboshimiz ma'ruzasida jahon zaxira valyutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investisiyaviy faollikning susayishi bilan bog'liq murakkab muammolar ko'plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanish va o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlab o'tildi. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar asosan qo'shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to'ldirish hisobidan hal etilishi ko'zga tashlanayotgani, bu esa, o'z navbatida, kelgusida jilovlab bo'lmaydigan inflyasiyaga, ya'ni qimmatchilikka, zaxira va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog'liq og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligi qayd etildi.

2.2. O'ZBEKISTONNING INQIROZGA QARSHI DASTURINING AMALIY NATIJALARI

Shu o'rinda jahon moliyaviy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri qanday bo'ladi, degan savol barcha yurtdoshlarimizni qiziqtirishi tabiiyidir. Bu borada Prezidentimizning "Tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim-O'zbekiston bugun Xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi". degan so'zlarini yana bir bor esga olish muhimdir. O'z navbatida O'zbekistonning glaballashuv jarayonlaridagi ishtiroki ham ushba inqiroz oqibatlarining ma'lum darajada iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkinligidan darak beradi.

Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohat va modernizasiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va amaldagi tasavvurlardan voz kechdik". Biroq o'z o'rnida takidlash lozimki, moliyaviy inqirozning Respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davlatlardagiga qaraganda mazmunan farq qiladi. Agar boshqa mamlakatlarda bu jarayonlar bevosita moliya tizimining izdan chiqishi va ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarining yopilishi orqali namoyon bo'lsa, bizda jahon xomashyo bozorlarida talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi hamda buning oqibatida eksport daramodlarining sezilarli kamayishi, asosiy savdo hamkorlarimizning harid qobiliyatining pasayishi natijasida tashqi savdo aylanmasining qisqarishi orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bugungi kunda ko'plab yetakchi omil va mutaxassislarimiz tamonidan iqtisodiyotimizda moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirini pasaytiradigan omillar

mavjudligi ta'kidlanmoqda. Iqtisodiy omillar va mutaxasislarning fikrlariga ko'ra, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga inqiroz oqibatlari ahamiyatli ta'sir ko'rsatadigan darajada integrasiyalashmaganligi, mamlakatimizda katta hajimdagi xorijiy kapitalni ushlab turuvchi kompaniya va moliyaviy institutlarning yo'qligi, xususiylashtirish mexanizimi va shart sharoitlari natijasida deyarli barcha ustav fondlarining, korxonalarning real xususiy aktivlari bilan taminlanganligi kabi holatlar asosida inqirozning salbiy ta'siri u qadar katta bo'lmasligi mumkin. Aksincha hozirgi inqiroz ehtimoli kutilayotgan salbiy ta'sirlardan tashqari biz uchun ijobiy ta'sirlarga ham ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarni vujudga keltirish mumkin. AQSh va Yevropadagi investorlar aksiyalardan bosh tortib, o'z aktivlarini bo'shatmoqdalar. Mohiyatiga ko'ra, qaytadan qandaydir ishga jalb etish zarur bo'lgan resurslarni bo'shatish jarayoni bormoqda. Demak, yangi bozorlarni, yangi imkoniyatlarni izlash boshlanadi. Investorlar kapital kiritishning muqobil yo'llarini qidiradilar. G'arb bozorlarida turg'unlikka yuz tutgan chog'da rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlari o'sishning ijobiy dinamikasini ko'rsatadi. Shunday mulohazalardan kelib chiqqan holda ko'plab investorlar O'zbekiston bozoriga e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas. Shuningdek jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmaganligini qo'yidagi omillar bilan izohlash mumkin.

- Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanlaganligi;
- Davlat bosh islohatchi sifatida ma'suliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi;
- O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy byudjet, bank-kredit tizimi shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar ajratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;

- Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi.
- Davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'lik barqaror va ishonchli ekani, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchliligi bilan izohlanadi. Hozir O'zbekistonning umumiy tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 13,3% ni tashkil etmoqda, eksport hajmiga nisbatan esa 31% dan oshmaydi. Bu o'z navbatidan mamlakatimizning halqaro darajadagi tulov qobiliyatiga egaligini ifodalaydi.

Respublikamizda doimo qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechib, chet el investisiyalarini uzoq muddatlarga, imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etishdi. Natijada milliy iqtisodiyotimizning xalqaro kreditlar bozoridagi konyunkturaga keskin bog'liqligini va moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarini oldi olindi.

2007-2008 yillarda o'zlashtirilgan chet el investisiyalari hajmi 2.5 martadan ko'proq oshdi. Bu holat milliy iqtisodiyotimizning yuqori investision salohiyatiga ega bo'layotganligi va hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan qulay investision muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Natijada 2008 yilda 1,5 milliard AQSh dolri xorijiy investisiyalar o'zlashtirildi, ularning 70% to'g'ridan-to'g'ri jalb qilinadigan investisiyalar ulushiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalar O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan real sektorlarini modernizasiya qilishga yo'naltirilgan. Investisiya dasturi doirasida 2009 yilda 1,8 milliard AQSh dolridan ortiq xorijiy investisiyalarni o'zlashtirish mo'ljallanganligi istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sish jarayonlari kuzatilishi kutilayotganligidan dololat beradi. Mazkur xorijiy investesiyalarning 75% to'g'ridan to'g'ri investisiyalar ulushiga to'g'ri keladi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda tashqi dunyo bilan ikki tomonlama o'zora manfaatli aloqlarimiz rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish, texnika va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirishimizda xorijiy

mamlakatlarning ilg'or texnologiyalariga asoslangan investisiyalarga ehtiyoj mavjud.

Qolaversa jahon bozoridagi talabning pasayib borishi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarimizni eksport ko'lamiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunga asoslangan holda hukumatimiz tomonidan inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va beqaror iqtisodiy o'sish suratlarini ta'minlovchi chora tadbirlar majmui o'z aksini topdi.

2012 yilda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq savkasining 6 foizdan 5 foizga pasaytirilishi jami 52 mlrd so'm miqdordagi mablag'ning ana shu korxonalar hisobida qoldirilishini ko'rsatmoqda.

E'tibor bering: Davlat qarzi ichki mahsulotga nisbatan Portugaliyada- 217% ni Ispaniyada-154%, Gresiyada-142%, AQSh da -100% ni tashkil etmoqda. YeI Mamlakatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha 85%dan iborat.

O'zbekiston tashqi qarzini to'lash bilan bog'liq byudjet harajatlari 2012 yilda YaIM ga nisbatan 0,3 % dan oshmaydi.

2011 yilning 9 oyida iqtisodiyotda investisiyalarning umumiy hajmi 12 trl 215 mlr 9 million so'mni tashkil qilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalarning xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanayotgani

Prezidentimiz jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bilan bog'liq xalqaro maydondagi o'zgarishlar va turli salbiy tendensiyalarga baho berar ekan, mazkur jarayonlarning o'tgan davr mobaynida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmasdan qolmagani va O'zbekiston iqtisodiyotining 2012 yilga mo'ljallangan o'sish sur'atlari va samaradorligini ta'minlashda katta qiyinchiliklar tug'dirishi mumkinligini tashvishlanarli hol sifatida ta'kidlab o'tdi.

Barchamizga ma'lumki, mazkur jarayonlarning ta'sirini real baholagan holda, mamlakatimiz rahbari inqirozning dastlabki pallasidayoq "...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni

chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi"⁵, deya o'zlarining qat'iy fikrlarini bildirgan hamda inqirozning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarini oldindan ko'rsatib bergan edi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida birinchi navbatda dunyo bozorida xomashyo va tayyor mahsulotga ehtiyojning tobora pasayib borishini hisobga oladigan bo'lsak, bunday holat mamlakatimizning eksport salohiyati va valyuta tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmasligini qayd etib o'tdi.

Shunisi e'tiborliki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan samarali iqtisodiy siyosat, eng avvalo iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda har tomonlama puxta o'ylangan o'z taraqqiyot yo'limiz – o'zbek modelining to'g'ri tanlab olingani va uning muhim tamoyillariga og'ishmay amal qilib kelinayotgani inqiroz sharoitida iqtisodiyotimiz uchun o'ziga xos "xavfsizlik yostig'i" vazifasini bajardi. Ayniqsa, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'liga yurtimizda qat'iy amal qilib kelinayotgani, davlatning bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olgani, mamlakatimizda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilgani va zarur resurslar bazasining mavjudligi, oqilona tashqi qarz siyosati olib borilgani, aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi va boshqa muhim omillar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini sezilarli darajada yumshatishda mustahkam zamin bo'ldi.

⁵ Ислом Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шaroитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 11-б.

Bu esa keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'zgarishlar va turli salbiy tendensiyalarga, shuningdek, o'zimizdagi mavjud ayrim murakkablik va qiyinchiliklarga qaramasdan, xalqimizning fidokorona mehnati evaziga 2011 yilda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli jabhalarida katta yutuqlarga erishish imkonini berdi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida oxirgi yillarda va o'tgan yili mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanayotganiga alohida e'tibor qaratdi.


Ma'lumki, Xalqaro valyuta jamg'armasi Kelishuv moddalarining IVmoddasiga binoan jamg'arma har yilda bir marta a'zodavlatlar bilan ikki tomonlama muhokama o'tkazadi. Jamg'arma xodimlaridan iborat guruh mamlakatga tashrif buyurib, iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar yig'adi hamda mamlakat iqtisodiyoti va iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlarni rasmiy shaxslar bilan muhokama qiladi. O'z qarorgohiga qaytgach, xodimlar XVJ Ijroiya kengashidagi muhokama uchun asos bo'lib xizmat qiladigan bayonot tayyorlaydilar.

2011 yilning 2-15 noyabrida Xalqaro Valyuta Jamg'armasining Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari departamenti bo'lim boshlig'i o'rinbosari Veronika Bakalu xonim rahbarligidagi missiyasi Toshkent shahrida bo'ldi. Xalqaro valyuta jamg'armasining keyingi baholash missiyasi bayonotida jumladan bunday deyiladi:

“O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish suratlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir. Qator yillar davomida kuzatilgan byudjet profisiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi... Missiya 2011 yilda yalpi ichki mahsulot 8,3 foiz ko'payishini kutmoqda va o'rta muddatli

istiqbolda iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolishini bashorat qilmoqda".

Ta'kidlash joizki, o'tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil etdi, 2000-2011 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi (2.2.4-rasm). Mazkur ko'rsatkich



bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2.2.4-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda.

Rasmdan ko'rinadiki, agar mamlakatimizda YaIMning o'sish sur'atlari 2000-2003 yillarda 3,8-4,2 foiz, 2004-2006 yillarda 7-7,3 foiz, 2007-2008 yillarda esa 9-9,5 foiz darajasida kuzatilgan bo'lsa, keyingi yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mazkur ko'rsatkichga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Biroq, yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillar orqali mamlakatimizda 2009-2011 yillarda ham YaIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda.

Mamlakatimiz YaIM o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning yuqori o'sish sur'atlari mustahkam zamin tayyorlamoqda. Jumladan, 2011 yilda sanoat ishlab chiqarishi 6,3 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 6,6 foiz, chakana savdo aylanmasi 16,4 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,1 foizga barqaror yuqori sur'atlar bilan o'sdi (2.1.1-jadval).

2.1.2-jadval

**O'zbekistonda iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalaridagi o'sish
sur'atlari, foizda**

Ko'rsatkich	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil
Sanoat ishlab chiqarishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish	6,1	4,5	5,7	6,8	6,6
Chakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1

Jadvaldan ko'rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida dunyo miqyosida yalpi talab, savdo va investisiyalar hajmining sezilarli darajada qisqarishi yurtimiz iqtisodiyotiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, inqirozdan oldingi 2007 yilda chakana savdo aylanmasi va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishning qo'shimcha o'sish sur'atlari darajasi (tegishli ravishda 21,0 va 20,6 foiz)ning keyingi yillarda sezilarli pasayishi kuzatildi. Biroq, shunisi e'tiborga loyiqki, shunday murakkab va qiyin sharoitda ham iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalarida iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlari saqlanib qolmoqda.

2.3. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA "IQTISODIY BILIM ASOSLARI" DARSIDA JAHON MOLIYAVIY- IQTISODIY INQIROZI HAQIDA TUSHUNCHA BERISH USLUBI.

ISHIMOVA MUHAYYONING IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANIDAN
9-SINFLAR UCHUN 1-SOATLIK DARS ISHLANMASI

Mavzu: Davlatning moliyaviy iqtisodiy inqirozdan chiqish bo'yicha chora-tadbirlari va o'ziga xos hususiyatlari.

Darsning maqsadi.

-O'quvchilarga inqiroz uning kelib chiqish sabablari haqida tasavvur va tushunchalar berish.

- O'quvchilarga inqirozdan chiqish yo'llari va chora-tadbirlari haqida ma'lumot berish.

Darsning materiallari va jihozlari.

- 1.O'zbekiston Respublikasining siyosiy haritasi.
2. Prezident asarlari.
3. Jadval diagramma slaydlari.
- 4.Doska men va boshqa tarqatma hamda ko'rgazmali qurollar.

Darsning borishi.

- 1.Sinfda o'quvchilarni darsga jalb qilib ishchi muhitni yaratish.
 2. Dunyoda va O'zbekistonda yuz beradigan muhim yangiliklardan habardor qilish.
 3. Yangi mavzuni boshlashdan oldin o'tilgan mavzuni mustahkamlash.
- A) Savol javob, t
- B) Test.
- V) Guruhlarga bo'lib ishlash.

Yangi mavzu bayoni:

Bunda inqiroz uning kelib chiqish sabablari, bosqichlari turlari davlatlarning iqtisodiyotiga salbiy ta'siri va davlatlarning iqtisodiy inqirozdan chiqish yoki

uni oqibatlarini yumshatish yo'lidagi harakatlari va chora tadbirlari xususida o'quvchilarga bayon qilish.

Yangi mavzuni mustahkamlash:

Aqliy xujum metodidan foydalanib yangi mavzu mazmunini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirib olganligini aniqlab olamiz. Bunda o'quvchilarga tezkorsavol va tezkor javoblar olinadi.

Guruhlarda ishlash:

Bunda sinf 3-guruhga bo'linib har bir guruhga alohida topshiriq beriladi.

1- Guruhga topshiriq.

Inqiroz nima va u qanday vujudga keladi.

2- Guruhga topshiriq.

Inqirozning turlari va bosqichlari qanday.

3- Guruhga topshiriq.

Qanday qilib inqirozning salbiy ta'sirlarini yumshatish mumkin. Buning uchun davlatlar qanday choralar qo'llaydi.

Darsni yakunlash.

Faol o'quvchilar va guruhlarini rag'batlantirish hamda baholangan o'quvchilarni e'lon qilish.

Uyga vazifa.

Mavzu yuzasidan o'quvchilarga va guruhlarga berilgan savollarga, topshiriqlarga javob topish.

MASHG'ULOTDA FOYDALANISH UCHUN MA'LUMOT O'RNIDA:

Jahon moliya institutlari – jahon moliyaviy va iqtisodiy tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida ushbu jarayonlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadigan, turli vosita va yo'llar bilan qo'llab-quvvatlaydigan va tavsiyalar beradigan xalqaro va milliy moliyaviy tashkilotlar.

Xalqaro valyuta jamg'armasi– xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o'z faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

Jahon banki–1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investisiya instituti bo'lib, o'z faoliyatini 1946 yil 25 iyunda boshlagan.

Osiyo taraqqiyot banki – Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasiga bevosita qarzlar berish hamda texnik jihatdan ko'maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishini rag'batlantirish maqsadida 1966 yilda tashkil etilgan bank.

“Katta yigirmalik” guruhi (G-20) rasman 1999 yilda global iqtisodiyotdagi asosiy muammolarni muhokama qilish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsuloti hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadigan quyidagi 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlat kiradi: Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSh, Turkiya, Fransiya, JAR, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi.

“Katta yigirmalik” guruhi faoliyati jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y berishi munosabati bilan yanada faollashdi. Xususan, guruh tomonidan inqirozga qarshi kurashish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etish maqsadida bir necha sammit o'tkazildi:

- AQSh (Vashington, 2008 yil noyabr; Pittsburg, 2009 yil sentyabr);
- Buyuk Britaniya (London, 2009 yil aprel);
- Kanada (Toronto, 2010 yil iyun);
- Janubiy Koreya (Seul, 2010 yil noyabr);
- Fransiya (Kann, 2011 yil noyabr).

“Katta yigirmalik” guruhining navbatdagi sammitlari 2012 yil iyun oyida Meksikada, 2013 yili Rossiyada, 2014 yili Avstraliyada, 2015 yilda esa Turkiyada o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

XULOSA

O'zbekiston iqtisodiyotining so'ngi yillardagi izchil va barqaror rivojlanishi biz tanlagan taraqqiyot modelining hayotiy va samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Oxirgi besh yil davomida iqtisodiyotning o'sish suratlari o'rtacha 8 foizga oshdi va 2009 yilning birinchi choragida 7.9 foizni tashkil etdi. Prognozlarga ko'ra, bu ko'rsatkich joriy yilda 7 foizdan kam bo'lmasligi kutilmoqda.

Eksport va sarmoyalari o'sish sur'atlarining barqaror va yuqoriligi, savdo va tulov balanslarining ijobiy saldos, davlat byudjetining profisiti va tashqi qarzlarning hajmi mutadil bo'lgani holda, oltin-valyuta zahiralarining mutasil ko'payib borishi ham bizning iqtisodiyotimizga xos jihatlaridir.

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish tajribasiva hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida barqarorlikka erishayotgani haqida qo'yidagi xulosa va qoidalarni alohida takidlash mumkin.

Birinchidan-bozor (talab va taklif) hamma narsani hal qiladi, degan xulosadan kelib chiqqan holda bozor munosabatlariga sajda qilaverish mumkin emas. Hayot tajribasi shuni necha bor ko'rsatdiki, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarni boshqarish, murakkab vaziyatlardan chiqib ketishi uchun ustuvorliklar tanlashda davlatning rolikidan foydalanish (Bozor kuchlari yengadi degan Darvin tamoyiliga amal qilishini e'tiborga olgan holda), aholining ko'pchilik qismi manfaatlarini ifodalovchi davlatning rolini kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va uzoq istiqbolga muljallangan milliy strategiyaning o'rnini hyech kim va hyech narsa bosa olmaydi.

Ikkinchidan-bugungi kunda so'ngi 15-20 yil davomida muayyan holatlar sababli uglevodorod xomashyosi va umuman, mineral xomashyosi narxlarining keskin o'sib ketishiga qarshi bo'lgan mamlakatlar ayniqsa mushkul ahvolga tushub qoldi, boshqacha aytganda ular o'zlari bilmagan holda jahon biznesining chayqavchilik bilan shug'ullanuvchi ayrim doiralar tomonidan sun'iy ravishda shishirilgan "narx pufakchalari"ga haddan ziyod bog'liq bo'lib qoldi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatida ko'plab qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan mamlakatlar

bugun shuni tan olmoqdaki ushba jarayonda iqtisodiyotni modernizasiya va defersifikasiya qilish, ishlab chiqarishni muntazam yangilash va inavasion texnologiyalarni joriy etish rivojlanishning asosiy ustuvori yo'nalishi bo'lgan va bu tamoyilga amal qilayotgan davlatlar yuksak muvoffaqiyatlarga erishadi. Ana shu omilning ahamiyatini teran anglash va ushbu muhim ustivorlikni amalga oshirish borasida doimiy, tizimli va puxta o'ylangan ish yuritish bu har qanday sharoitda eng murakkab holatlarda ham muvoffaqiyatga erishishning kaliti bo'lib qolaveradi.

Uchinchidan-bizningcha, yigirmata yetakchi davlat ishtirokida Londonda bo'lib o'tgan uchrashuvning eng muhim yutuqlaridan biri shundaki, muzokaralar jarayonida oddiy bir haqiqat bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan oqilana yondashuv ustuvorlik qildi. Ya'ni, avvalo jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tufayli vujudga kelgan yong'inni o'chirish kerak. Shundan so'ngina o'z umrini yashab bo'lgan. Bretton-Vud tizimi va uning institutlardan yangi moliya-bank tizimiga uni boshqarish tamoyillariga o'tish modelini shakillantirish, yangi moliyaviy mexanizmlarni qabul qilish kerak.

Biz mustaqil taraqqiyot yillarida-tarixan qisqa bir davrda beqiyos yutuq va marralarga erishdik. Biz qo'lga kiritgan yuksak natijalarni dunyo tan oldi. Eng muhimi-yurtimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surmoqda, iqtisodiyotimiz barqaror o'sish sur'atlari bilan rivojlanib bormoqda.

Biz o'z oldimizga qo'ygan uzoq muddatli ulkan maqsadlar, ya'ni zamonoviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, halqimizning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash vazifasi barchamizdan birdamlikni, bir yoqadan bosh chiqarib, o'zimizni talab etadi.

2008 YILDA BOSHLANGAN JAHON MOLIIYAVIIY-IQTISODIY INQIROZINING NAVBATDAGI TO'LQINI YE'VROPADA YUZ BERISHI MUMKINLIGI TO'G'RISIDAGI BASHORATLAR DUNYO MIQYOSIDA YANA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNI DOLZARB MASALA SIFATIDA KUN TARTIBIGA KIRITA BOSHLAGI

Hayotning turli soha va tizimlarini rivojlantirib, jamiyatni harakatga keltiradigan tadbirkorlik eng og'ir muammo – ishsizlikni hal etishda muhim rol' o'ynashini ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak.

Mutaxassislarning fikricha, kichik biznes yangi texnologiyalarni hayotga tatbiq etishda ham alohida faollik ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, tarixda ham, bugungi kunlarimizda ham tadbirkor va ishbilarmon insonlar har qanday davlatning tayanchi va suyanchi, har qanday jamiyatning ustuni bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda XXI asrning 90-yillarida oyoqqa tura boshlagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tuzilmalari o'zining bardoshlilik bilan dunyoda yirik monopoliyalar hukmronligi to'g'risidagi qarashlarni chippakka chiqarayotganini alohida ta'kidlash joiz. Tan olish kerak: 90-yillarning o'rtalarida hatto AQShda ham kamida 20 kishidan iborat ish o'rni yaratgan kichik tadbirkorlik subyektlari jami yangi ish o'rinlarining 60 foizini tashkil etgan edi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida 25 million fuqaro ish bilan ta'minlangan bo'lsa, yirik korporasiyalar, aksincha, 3 millionta ish o'rnini qisqartirishga majbo'r bo'ldi. 2008 yilda boshlangan va hali hanuz davom etayotgan global inqiroz sharoitida ham aynan yirik korxonalar 30 million ishchi-xizmatchini bushatgani dunyo miqyosida kichik va xususiy biznesga nisbatan munosabatning tubdan o'zgarayotganini anglatadi.

Tahlilchilarning fikricha, Angliyada 200 nafardan kam, qurilish sohasida 25 kishidan ortiq bo'lmagan, AQShda esa 20 nafardan 500 nafargacha ish o'rni yaratgan korxonalar kichik biznes subyektlari, deb yuritiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, AQShda ishlab chiqarilayotgan yalpi milliy mahsulotda kichik biznesning ulushi 40 foizni tashkil etsa, Germaniyada yalpi ichki mahsulotning uchdan ikki qismi 2,1 millionta mayda va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Fransiyaning kichik va o'rta korxonalarida faoliyat olib borayotgan 12 million ishchining investisialardagi ulushi 48 foiz, savdo aylanmasida 60,2 foiz, eksportda 49,6 foizni tashkil etadi.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Transmilliy biznes kuch-qudratiga qaramay, nega kichik biznes subyektlarining mavqeyi tobora ortib borayapti?

Ekspertlarning fikricha, asosiy oilaviy biznes tashkil etayotgan «yaratuvchanlik tamoyili» kichik korxonalar bardavomligini ta'minlab berayotgan asosiy omildir. Har qanday tadbirkor kuchli raqobat muhitida yashab qolish uchun, albatta, o'z mahsulotining sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratadi. Iste'molchi ehtiyojini o'rganish uchun odamlar bilan doimiy muloqotda bo'lish ham bunday korxona yashovchanligining yana bir siridir.

Kichik biznesni rivojlantirishda Yaponiya o'ziga xos maktab yaratganini alohida ta'kidlash joiz. Uning jahon bozoridan munosib o'rin egallashida ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish borasida «Sifat nazorati» to'garaklarida tahsil olgan mutaxassislar o'rni beqiyos bo'lganini mutaxassislar hamon e'tirof etmoqdalar. Darhaqiqat, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi tabiiy boyliklari nihoyatda cheklangan davlatlardagi sharoit ko'proq aqlga tayanishni talab etadi. Hayotning turli soha va tizimlarini rivojlantirib, jamiyatni harakatga keltiradigan tadbirkorlik eng og'ir muammo – ishsizlikni hal etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak. Mutaxasislarning fikricha, kichik biznes yangi texnologiyalarni hayotga tatbiq etishda ham alohida faollik ko'rsatmoqda. Chunki rivojlangan mamlakatlar tajribasi kichik biznes iqtisodiyotni boshqarishning samarali shakli va yangiliklarga nisbatan yashovchan ekanini allaqachon isbotlab bo'ldi. Bozor sharoiti o'zgarishlariga moslashuvchanlik, shaxsiy tashabbuslar uchun keng imkoniyatlar mavjudligi soha muvaffaqiyatiga keng yo'l ochayotir. Bugun nafaqat G'arb, balki sobiq socialistik davlatlarda kichik biznes o'ziga xos tadbirkorlik ramzi sifatida e'tirof etilmoqda va har qanday jamiyat taraqqiyoti bevosita kichik va o'rta toifaga kiruvchi tadbirkor kadrlarni tayyorlashga bog'liqligiga alohida ahamiyat qaratilayapti. Jahonda aynan ushbu yo'nalishga mos mutaxassislar yetishtiruvchi yuzlab maktab va maxsus markazlar ish yuritayotgani buning yaqqol isbotidir. Xuddi shunday davlat idoralarinibiznesga qulay shart-sharoit yaratish borasidagi roli oshib borayotganini shu bilan izohlash mumkin. Shubhasiz, har qanday jamiyatda u yoki bu qatlam manfaatlarini, xoxish-irodasi va orzu-istaklarini ro'yobga chiqarishga intiladigan harakatlar, uyushmalar va siyosiy

partiyalar bo'ladi. Bunday birlashmalar davlatning qonunchilik organlariga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazishga urinadilar. Chunki tadbirkorlikka oid qonunlar bozor islohotlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Ana shu nuqtai nazardan deyarli har bir demokratik davlatda ular manfaatini himoyalaydigan tashkilot yoki guruxlar faoliyat ko'rsatadi. Olaylik: AQShda Savdo palatasi tadbirkor oldidagi birinchi darajali vazifalar xususida har yili mamlakat prezidentiga hisobot tayyorlaydi. Bu ma'lumotlar bo'lg'usi siyosiy yo'nalishlarni shakllantirish va tegishli qarorlar qabul qilishda qo'l keladi.

Boshqa bir mamlakatlarda esa islohotlarning jadallashishiga ko'maklashish maqsadida «Miya markazlari» deb yuritiluvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari izlanishlar olib boradi. Ular odatda xususiy sektorga oid qabul qilinayotgan qonunlarning kamchilik va afzalliklarini nazariy jihatdan tadqiq etib, ovoz berishdan oldin bu haqda deputatlarni ogoh etadilar. Masalan, Dominika Respublikasida 1985 yil tashkil etilgan Iqtisodiy yo'nalish markazi, Perudagi Ozodlik va demokratiya instituti kabi markazlar islohotlarni muvaffaqiyatli olib borishda muhim rol o'ynamoqda. Germaniyadagi Sanoatchilar birlashmasi esa tadbirkorlarning qonunchilik sohasidagi muammolarini yechish va ularning qonun chiqaruvchilar bilan aloqalarida ko'proq vazifasini o'taydi. Umuman olganda, tadbirkorlarni bozor ko'nikmalariga o'rgatish islohotlarning izchilligini ta'minlash barobarida aholi ongida ishbilarmonlik vakillariga nisbatan ijobiy fikrni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda G'arb olami va sobiq kommunistik davlatlarda tadbirkorlikka munosabat yaqin vaqtlargacha tubdan farq qilganini unutmaslik kerak. AQShda tadbirkorga pul topa oluvchi, mutlaq nufuzli, faol va ishbilarmon kishi sifatida qarashadi, hurmat qilishadi. Bu yerda biznesmen — faxriy va daromadli kasb egasi. Biroq Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotlar jamiyatning tadbirkorlarga nisbatan salbiy munosabati yuqori bo'lib qolayotganini ko'rsatmoqda. Olimlarning fikricha, bu ko'proq kollektivimizga xos bo'lgan an'analarning saqlab qolingani, ularning mentalitetida ushbu toifaga yomon ko'z bilan qarash, ishbilarmonlarni birovlar

hisobidan daromad topadigan kimsalar qatoriga qo'shish tushunchasi mavjudligi bilan izohlanadi.

Shunga qaramay, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik butun dunyo iqtisodiyotni modernizasiya qilish, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovi bo'lib qolishi shak-shubhasizdir. XXI asrning dastlabki ikki o'n yilligida ketma-ket yuz berayotgan moliyaviy iqtisodiy inqirozlardan so'ng ham xususiy sektor tezda o'zini o'nglab, iqtisodiyotda o'z mavqeyini saqlab qolayotgani buning amaldagi isbotidir.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlari

Ma'ruzada keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlariga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz ushbu jarayonlarni birgina misolda, ya'ni 2000yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizga yetganida yaqqol ko'rish mumkinligini ta'kidlab o'tdi.

Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), kimyo va neft-kimyo sanoati (9,4 foiz), oziq-ovqat sanoati (13,1 foiz), qurilish materiallari sanoati (11,9 foiz), farmasevtika va mebelsozlik (18 foiz) 2011 yilda jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Umumiy holda sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishini 1990 yil darajasiga taqqoslaydigan bo'lsak, 2011 yilda bu ko'rsatkichlar bir necha marta o'sganini ko'rishimiz mumkin (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi, foiz (1990=100 foiz)

Ko'rsatkichlar	1990 yil	2000 yil	2011 yil*
Sanoat – jami	100	123,6	3,2 marta
Yoqilg'i sanoati	100	127,3	2,2 marta
Qora metallurgiya	100	58,8	1,6 marta
Rangli metallurgiya	100	107,4	116,1
Kimyo va neft-kimyo sanoati	100	97,5	3,1 marta
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	100	142,2	13 marta
Qurilish materiallari sanoati	100	58,4	1,5 marta
Yengil sanoat	100	159,2	4 marta
Oziq-ovqat sanoati	100	150	6,4 marta
Boshqa sohalar	100	162,6	6,2 marta

**Izoh: 2011 yilning dastlabki baholashma'lumotlari.*

Jadvaldan ko'rinadiki, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish sur'atlari 3,2 marta o'sgan. Ushbu o'sishni ta'minlashda, ayniqsa, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining 13 marta, oziq-ovqat sanoatining 6,4 marta, yengil sanoatning 4 marta o'sishi sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qurilish materiallari sanoatining o'sishi dastlabki 10 yil ichida, ya'ni 2000 yilda 58,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan e'tibor hamda yaratilgan shart-sharoitlar natijasida 2011 yildagi o'sish 1,5 martani tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2011yilda 11,2 foizga o'sdi, 2000yilga nisbatan esa bu ko'rsatkich 4 barobardan ziyod oshdi.


Mamlakatimizda o'tgan davrlarda sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- infratuzilmani shakllantirish (suv, gaz, elektr energiyasi, transport va boshqalar);
- yengil sanoat sohasida yangi korxonalar tashkil etish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish;
- charm xomashyosini qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish;
- qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish va bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash;
- xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish va ular bilan bozorni to'la ta'minlash;
- qurilish materiallari industriyasini rivojlantirish;
- sanoatni rivojlantirishda bank kreditlari ta'sirchanligini oshirish;
- sanoatni rivojlantirishda qo'shma korxonalarning ulushini oshirish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlash;
- mahalliy lashtirish dasturi va xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperasiya birjasi doirasida yaratilgan imtiyoz va preferensiyalardan keng foydalanish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti ko'lamini kengaytirish, kichik korxonalar mahsulotlarini eksportga yo'naltirishga ko'maklashish.

Tashqi savdo aylanmasi tarkibidagi bunday ijobiy o'zgarishlar mustaqillik yillarida mazkur sohaga qaratilgan e'tibor, xususan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama rag'batlantirish hamda import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat natijalari hisoblanadi. "O'zbekiston mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi chetga xomashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste'mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va ko'proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizasiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

Eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz paxta yakkahokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo'ldi. Uning eksportdagi ulushi kamayib, 1990 yildagi 59,7 foizdan 2010 yilda 11,3 foizga tushdi⁶. 2011 yilda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005yildan boshlab Davlat byudjeti profisit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turganini ta'kidlab o'tdi (2.3.1-rasm).



2.3.2-rasm. Davlat byudjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi, foizda.

Rasmdan ko'rinadiki, 2000-2004 yillar davomida mamlakatimiz davlat byudjeti taqchilligini -1,0 foizdan -0,4 foiz darajasiga qadar pasaytirishga, 2005-2008 yillar davomida esa davlat byudjeti taqchilligiga barham berib, davlat byudjeti profisitini 0,1 foizdan 1,5 foizga qadar oshirishga erishildi.

Keyingi yillarda mazkur jarayonlarga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga qaramasdan, byudjet profisitini saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, juda murakkab kechgan 2011 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida byudjet daromadlari uning xarajatlaridan ortish hajmi YaIMning 0,4 foizi darajasida bo'lishiga erishildi. Umuman olganda, davlat byudjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich o'zgartirish va erkinlashtirish,

⁶ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. – Т.: “Ўзбекистон”, 2011, 59-61-б.

ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarning xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Mustaqillik yillarida davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi sifat jihatidan o'zgardi. Hozirgi vaqtda davlat xarajatlari tarkibida kuchli ijtimoiy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishni moliyalashtirish asosiy o'rin tutadi. Natijada ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan xarajatlar ulushi 1990 yildagi 31,5 foizdan 2000 yilda 42,5 foizga va 2010 yilda 59 foizga izchil o'sdi⁷. 2011yilda Davlat byudjetining xarajatlar qismi 2010yilga nisbatan 25,4 foizga, 2000yilga nisbatan esa qariyb 17,8 barobar o'sdi. Qayd etish joizki, davlat byudjeti xarajatlarining 58,7 foizi ijtimoiy sohani moliyalash va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

2012yilning 1yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizning umumiy tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 17,5 foizidan, eksport hajmiga nisbatan esa 53,7 foizdan oshmaganiga alohida e'tiborni jalb etib, bunday raqamlar xalqaro mezonlar bo'yicha "Har jihatdan maqbul holat" deb hisoblanishini qayd etdi. Bularning barchasi mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab ham davlat, ham tijorat banklari, kompaniya va korxonalar miqyosida har tomonlama puxta o'ylangan chetdan qarz olish siyosatini amalga oshirib kelayotganimiz bilan bog'liqdir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'zgarishlar va turli salbiy tendensiyalarga qaramasdan, O'zbekistonda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat hamda xalqimizning fidokorona mehnati evaziga juda katta ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda, iqtisodiyotimizda jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlariga erishilmoqda.

⁷ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. – Т.: “Ўзбекистон”, 2011, 59-61-б.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov “O‘zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo‘lida” Toshkent O‘zbekiston nashriyoti 1995 yil.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyati tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2003 yil 24 yanvardagi RF-3212 son farmoni.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” Toshkent O‘zbekiston NMIU 2009 yil.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ”jahon moliyaviy iqtisodining inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari” nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent iqtisodiyot nashriyoti 2009 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov.ning ”Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari” Halqaro ilmiy amaliy konfirensiya ishtorokchilariga tabrigi. Fuqoralik jamiyati jurnali №2. 2009 yil.
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisi to‘g‘risida Axborot. Xalq so‘zi gazetasi 5-dekabr 2009 yil.
7. Sh. Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi” o‘quv qo‘llanma.Toshkent 2009 yil.
8. Gulbahor O‘mirzoqova “Inqirozga qarshi kurash choralar ijrosini ta‘minlash” Milliy tiklanish gazetasi 22 aprel 2009 yil.
9. I.A.Karimov ”Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” Toshkent O‘zbekiston nashriyoti 2010 yil.
- 10.I.A.Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” Ishonch, 2010 yil 13 noyabr №135.

11.I.A.Karimov “Mamlakatimizni modernizasiya qilish yo’lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir” “Xalq so’zi” 2010 yil 8 dekabr, №236

12. I. A. Karimovning “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20-yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so’zi, “Fuqoralik jamyati” 2011 yil, №3

13.Bu muqaddas vatanda azizdir inson” G’.G’ulom nomidagi NMIU, 2011 yil.

14.I.A.Karimov “O’zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida” O’zbekiston NMIU.2011 yil.

15.I.A.Karimov “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’tariladigan yil bo’ladi.” Xalq so’zi 2011 yil 8 dekabr №238.

16. «XXI ASR» 2011yil 27 oktyabr.

17. Internet sayitlarda.

A. Qodiriy nomli Jizzax DPI “Tabiatshunoslik va geografiya” fakulteti 4 kurs talabasi **Ishimova Muhayyoning** “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” mutaxassisligi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan
“*Rivojlangan mamlakatlarning jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozdan chiqish borasidagi chora tadbirlari*” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

XULOSA

Ishimova Muhayyoning “Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari” mutaxassisligi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan “*Rivojlangan mamlakatlarning jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozdan chiqish borasidagi chora tadbirlari*” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob (har bir bob 3 ta bo’limdan iborat) xulosa, hamda foydalanilgan adabiyotlardan ro’yxati va taqdimot slaydlaridan iborat.

I- bobda: Iqtisodiy inqirozning kelib chiqish mohiyati, tarkibiy inqirozlar va ularning iqtisodiyotning alohida sohalariga ta’sir etish yo’nalishlari, Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi kelib chiqish bosqichlari va uning o’ziga xos xususiyatlari to’g’risida to’liq tahliliy ma’lumot berilgan.

II- bobda esa, rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlangan mamlakatlarning inqirozga qarshi dasturlarining qiyosiy tahlili, O’zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturining amaliy natijalari, Umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Iqtisodiy bilim asoslari” darsida Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi haqida tushuncha berish uslubi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa O’zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturining jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan amaliy natijalari to’g’risida atroflicha ma’lumot berilgan.

Xulosa qismida esa tahlillarga tayangan holda O’zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturi no’g’ri tanlangan yo’l ekanligi ta’kidlanadi.

Bundan tashqari mavzuga doir bir soatlik dars ishlanmasi noan’anaviy uslubda tayyorlanib, undagi asosiy e’tibor o’quvchilarda inqirozga doir r yangi bilim va ko’nikmalarni oshirishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda mavzuga doir turli xil adabiyotlardan, jumladan prezidentimiz I. A. Karimovning keyingi yillardagi asarlaridan, Respublika qonun xujjatlaridan, ommaviy axborot vositalaridan, hamda internet ma’lumotlaridan unumli foydalanilgan. har bir bobni yoritishda Respublikamiz va Jahon iqtisodiyoti bilan bog’liq bo’lgan statistik ma’lumotlar, jadvallar va chizmalar keltirilgan.

Ishida biroz texnik kamchiliklar bor, biroq u ishning mazmun mohiyatiga ta’sir ko’satmaydi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki ish yaxshi saviyada yozilgan DTS talablariga javob beradi, hamda Ishimova Muhayyoning Bitiruv malakaviy ishini davlat Attestatsiya hay’ati huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

Iqtisodiy bilim asoslari
kafedrası mudiri, ilmiy rahbar:

dots. Sh. Xidirov

A. Qodiriy nomli Jizzax DPI “Tabiatshunoslik va geografiya” fakulteti 4 kurs talabasi **Ishimova Muhayyoning** “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” mutaxassisligi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan
“*Rivojlangan mamlakatlarning jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozdan chiqish borasidagi chora tadbirlari*” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

“Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari” mutaxassisligi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan **Ishimova Muhayyoning** “*Rivojlangan mamlakatlarning jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozdan chiqish borasidagi chora tadbirlari*” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob (har bir bob 3 ta bo’limdan iborat) xulosa, hamda foydalanilgan adabiyotlardan ro’yxati va taqdimot slaydlaridan iborat bo’lib talablar asosida yosilgan.

BMI ning birinchi bobida: Iqtisodiy inqirozning kelib chiqish mohiyati, tarkibiy inqirozlar va ularning iqtisodiyotning alohida sohalariga ta’sir etish yo’nalishlari, Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi kelib chiqish bosqichlari va uning o’ziga xos xususiyatlari to’g’risida to’liq tahliliy ma’lumot berilgan.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlangan mamlakatlarning inqirozga qarshi dasturlarining qiyosiy tahlili, O’zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturining amaliy natijalari, Umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Iqtisodiy bilim asoslari” darsida Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi haqida tushuncha berish uslubi haqida II- bobda fikr yuritilgan. Jumladan O’zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturining jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan amaliy natijalari to’g’risida atroflicha ma’lumot berilgan.

Xulosa qismida esa tahlillarga tayangan holda O’zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturi no’g’ri tanlangan yo’l ekanligi ta’kidlanadi.

Mavzuga doir bir soatlik dars ishlanmasi noan’anaviy uslubda tayyorlanib, undagi asosiy e’tibor o’quvchilarda inqirozga doir yangi bilim va ko’nikmalarni oshirishga qaratilgan. Bu esa ishning amaliy ahamiyatini oshirgan.

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda mavzuga doir turli xil adabiyotlardan, I. A. Karimovning keyingi yillardagi asarlaridan, Respublika qonun xujjatlaridan, ommaviy axborot vositalaridan, hamda internet saytlaridan unumli foydalanilgan. har bir bobni yoritishda Respublikamiz va Jahon iqtisodiyoti bilan bog’liq bo’lgan statistik ma’lumotlar, jadvallar va chizmalar keltirilgan.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki ish yaxshi saviyada yozilgan va Ishimova Muhayyoning Bitiruv malakaviy ishini davlat Attestatsiya hay’ati huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

Iqtisodiy bilim asoslari
kafedrası katta o’qituvchisi :

i.f.n . Botirov B.F.

2012-06-16